



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MUSIQA FANINI O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI

Tilabova Hilola Avazmurotovna

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqa fanini o'qitishning nazariy asoslari tahlil etiladi. Musiqa ta'limining yosh bolalar uchun ahamiyati, ularning estetik dunyoqarashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda musiqiy ta'limning psixologik-pedagogik jihatlari, innovatsion metodlar hamda interfaol texnologiyalar asosida o'qitish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, musiqa darslarida o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning ritm, ohang, kuy kabi musiqiy elementlarni tushunish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan strategiyalar haqida so'z boradi. Maqolada musiqiy ta'lim jarayonida milliy va jahon musiqasidan foydalanish, shuningdek, o'qituvchining kasbiy mahorati va pedagogik yondashuvlarining o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: musiqa ta'limi, boshlang'ich sinf, pedagogika, innovatsion metodlar, ijodiy qobiliyat, estetik tarbiya.

Musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni o'stirishga xizmat qiladi.

Musiqaning juda katta tarbiyaviy imkoniyatlari o'qituvchining jiddiy kasbiy tayyorgarligi, o'quvchi shaxsiga hamda uning musiqiy- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga



qaratilgan doimiy e'tibori asosidagina yuzaga chiqadi. Shu bilan bir qatorda musiqa o'qitishning samarasini belgilovchi muhim omillardan biri musiqiy metodik masalalarning nazariy jihatdan ishlab chiqilganligi va uning amaliyot bilan bog'liqligi darajasidir[1].

Musiqa o'qitish metodikasi umumta'lim maktablarida musiqiy ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari, qonuniyatlari, nazariy asoslari va uslubiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Musiqiy ta'lim pedagogikasida ko'p yillar mobaynida musiqa o'qitish metodikasi fani bo'yicha o'zbek tilida yetarli darajada darslik yoki o'quv qo'llanmaning yo'qligi kadrlar tayyorlash jarayoni sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Musiqa o'qitish metodikasi – musiqa san'ati vositasida bola shaxsini maqsadga yo'naltirgan holda unda musiqa madaniyatini shakllantirish yo'llarini o'rganadi. Musiqa o'qitish metodikasi didaktik va xususiy prinsiplar, usul, vosita va metodlar yordamida musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish hamda uning umumiy va xususiy vazifalarini hal etish yo'llarini belgilaydi. Umumiy vazifalarga – musiqaning tarbiyaviy ta'sir kuchini ko'rsatish, o'quvchilarda musiqaga bo'lgan muhabbatni, ehtiyojni o'stirish, musiqa tinglash jarayonini tashkil etish, musiqa madaniyatini shakllantirish va hokazo masalalar kiradi. Xususiy vazifalarga esa qo'shiq o'rgatish usullari, ovoz diapozonini mustahkamlash va keqaytirishga yordam beruvchi mashqlarni tavsiya etish, musiqa idrokini, tinglash qobiliyatini rivojlantirish, musiqa savodini egallash bosqichlarini belgilash va hokazo masalalar kiradi[2].

Musiqa o'qitish metodikasi pedagogika-psixologiya fanlarining turli sohalari bilan uzviy bog'liq. Bu esa hayotimizda jamiyat oldida turgan vazifalar, umumta'lim maktablari va o'qituvchilar oldiga qo'yiladigan talablar, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, maktabda musiqiy ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularning rivojlanish istiqbolini belgilash imkoniyatini beradi.



Metodika o‘z oldida turgan muammolarni hal etishda ham psixologiyaga tayanadi. Masalan, musiqa idroki, ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bola ruhiyati, ongi, tafakkuri, xotirasi, tasavvuri qonuniyatlari, uning ko‘rinishlari, rivojlanish bosqichlari haqidagi bilimlarga, musiqiy qobiliyat, inson faoliyati nima ekanligi xususidagi tushunchalarga ega bo‘lish shart[3].

Musiqa o‘qitish metodikasi umumiy ta’limning murakkab va ko‘pqirrali maqsadlarini hamda musiqa ta’lim-tarbiyasi vazifalarini samarali hal etish uchun pedagogika va psixologiya fanlari bilan bir qatorda musiqashunoslik ilmi va musiqa ijrochiligi sohalariga ham tayanadi.

Musiqashunoslik ilmining musiqiy tarixiy-nazariy fanlar mazmuni o‘quvchilarga musiqiy san’at xususiyatlarini yetkazish yo‘llarini topishga, ularga hayotning musiqiy obrazlarda aks etishi, musiqiy ifoda vositalarining ahamiyatini tushuntirishda, musiqiy asarlarni badiiy tahlil qilish metodlari va texnologiyalarini aniqlashda yordam beradi. Musiqa tarixi, asosiy yo‘nalishlar, uslub va janrlarning rivojlanishi, yirik kompozitorlarning o‘ziga xos ijod yo‘li haqidagi bilimlar maktab o‘quvchilarining musiqiy didini tarbiyalash, ularning dunyoqarashini kengaytirishga asos bo‘ladi.

Har bir ijrochilik sinfi: yakka kuylash, dirijorlik, musiqa asbobi bo‘lg‘usi muallimda o‘quvchilar bilan ishlashda ularda ovozni saqlash va rivojlantirish, xor bilan ishlash musiqiy asarni ifodali ijroda ko‘rsata olish – o‘quvchilarda musiqaga ijodkorlik hissini o‘stirish malakalarini shakllantirish bilan metodikaga o‘z hissasini qo‘shadi.

Musiqa o‘qitish metodikasi fanining asosiy tushunchalari “tarbiya-ta’lim» – «rivojlantirish» va ularning o‘zaro bog‘liqligidir[4].

Tarbiya. Pedagogikada tarbiya deganda bolalar, o‘smirlar, yoshlarning jismoniy, ma’naviy kuchlarini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini shakllantirish tushuniladi.



Hayotni aks ettirishi, hayot bilan bog‘liqligi, uning musiqa ijodkori, ijrochisi va tinglovchisining hayotiy qarashlariga bog‘liqligi musiqani tarbiya vositasiga aylantiradi. Musiqiy tarbiya jarayonida o‘quvchida axloqiy, aqliy, estetik jismoniy sifatlar tarkib topadi.

Ta’lim – bilimlar majmuasini o‘zlashtirish jarayonidir. Xususan, musiqiy ta’lim o‘quvchilarni turli musiqiy faoliyatga o‘rgatish, musiqiy tasavvur, bilim, malaka va ko‘nikmalar berish va bu bilimlarning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish jarayonidir.

Rivojlantirish – eng oddiy, sodda musiqiylik ko‘rinishlaridan murakkablariga qarab takomillashish. Boshqacha aytganda, musiqiy qobiliyatning o‘sishi va shakllanishi jarayoni rivojlanishni hosil qiladi.

O‘quvchilarga musiqiy ta’lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish ishlari yaxlitlikda olib borilishi musiqa pedagogikasining eng muhim qonuniyatlaridir.

Musiqa o‘qitish prinsiplari – musiqiy ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yiladigan talablar yig‘indisidir.

Musiqa o‘qitish metodikasi pedagogika fani sifatida uning umumiy qonuniyatlariga bo‘ysunadi va umumdidaktik prinsiplarga asoslanadi:

- tarbiyalovchi ta’lim;
- ilmiylik, tizimlilik va izchillik;
- musiqiy materialning qulayligi va bolalar yoshiga mosligi;
- ko‘rgazmalilik;
- tasavvur, bilim, malaka va ko‘nikmalarning mustahkamliligi;
- o‘quvchilar musiqiy faoliyatining faolligi, mustaqilligi;
- musiqiy tarbiyaning hayot bilan bog‘liqligi.

Mazkur prinsiplar o‘qituvchi hamda o‘quvchilar tomonidan bajariladigan barcha ta’lim komponentlari – dars mazmuni, metodlari, dars tuzilishidagi asosiy talablar va yo‘nalishlarni belgilab beradi.



Shu bilan bir qatorda musiqa o'qitish metodikasi o'zining xususiy prinsiplarini ham ilgari suradi. Bulardan: emotsionallik va onglilikning birligi hamda badiiylik va texnikaning birligi prinsiplarini ko'rib chiqamiz[5].

Emotsionallik va onglilikning birligi prinsipi. Bu prinsipning zarurligi musiqa san'ati va uni idrok etishning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Musiqani idrok etishni rivojlantirish undan olingan hissiy taassurotlar, uning ifoda vositalarini anglashni talab etadi. Musiqiy asarni tinglashdan olingan hissiy ta'sirni ong bilan qabul qilish uning mazmunini tushunishga, o'quvchilarda musiqiy tajriba to'plashga yordam beradi. O'quvchilarning fikri, kechinmalari, hissiyotlarini boyitadi, musiqaning ta'sirini kuchaytiradi. Mazkur prinsipni musiqa o'qitishda qo'llash o'quvchilarda idrok etilgan asarga baho berish qobiliyatini o'stiradi va shu asosda ularning qiziqishi, musiqiy didi, ehtiyojlari tarbiyalanadi.

Badiiylik va texnikaning birligi prinsipi. Musiqiy asarni badiiy va ifodali ijro etish uchun ma'lum bir malaka va ko'nikmalar talab etiladi. Masalan, qo'shiqni o'rganish jarayonida o'quvchilarda vokal-xor malakalari shakllantiriladi. Bolalar cholg'ularida ijro etish uchun ham birgalikda chalishning eng oddiy usul va yo'llarini o'quvchilar egallashlari lozim. Bunda ijrochilik malakalari badiiy vazifalarga, ya'ni musiqiy asar obrazi, kayfiyatining yorqin, ifodali yoritilishiga qaratilgan bo'lishi talab etiladi. Bunda musiqiy asarning badiiy ijrosiga erishish maqsad bo'lib, malaka va ko'nikmalarni egallash shu maqsadga yetishishda vositadir.

Bu prinsiplar o'quvchilarda musiqiy qobiliyatlarni, musiqaga qiziqishni, did va musiqa madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Musiqiy qobiliyatlar, ularning turlari, maxsus (ijrochilik, bastakorlik) va umumiy musiqiy qobiliyatlar, ularning rivojlanish shart-sharoitlari masalalari ko'plab psixolog-



pedagoglar, musiqashunoslar tomonidan keng o'rganib chiqilgan. Hozirda ham bu muammolar o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Mutaxassislar musiqiy eshituv, ritm hissi, musiqiy xotirani musiqiy qobiliyatlarning asosiy ko'rinishlari deb belgilaydilar.

Musiqiy eshituv qobiliyati – bu tovushning baland-pastligi, kuchi, tembri va davomiyligini his etishdir.

Musiqiy ritm tuyg'usi – musiqadagi vaqt-o'lchovli harakatni, uning ifodaviyligini his etish, aniq ijro etish qobiliyatidir.

Musiqiy xotira – bu musiqiy asarni tez va uzoq vaqt yodda eslab qolish qobiliyati. Bu qobiliyatlar umumlashma nom bilan musiqiy pedagogika amaliyotida musiqiylik deb ham yuritiladi. Ammo musiqiylik 3 ta qobiliyat bilan cheklanmaydi. Musiqiylikning asosini musiqadagi ifodaviy mazmun, obrazni tushuna olish, unga hissiy munosabat ko'rsata olish qobiliyatlari ham hosil qiladi. Darsda o'quvchilarni musiqani diqqat bilan tinglash, asarlarni qiyoslash, taqqoslash, eng yorqin va idrok etilgan asarlarga baho bera olishga o'rgatish, musiqa ijrochiligi uchun lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarga o'rgatish – musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish demakdir.

ADABIYOTLAR:

1. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: Ped. fan. nom. diss. – T.: Buxoro davlat universiteti, 2002. –276 b.
2. Nazarqulova G'. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish // Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti: Resp. ilmiy-amaliy anjumani material. – T., 2019. – 308 b



3. Qodirov R.G'. Boshlang'ich sinflarda ko'p ovozli kuylash malakalarini shakllantirish. – T., 1997.
4. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. O. Ibragimov. –T., 2004.
5. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. Nurmatov H., Norxo'jaev N. –T 2002